


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

70730802 – *Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi*
(avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligining
malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat transport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «29» 08 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil «9» 09 dagi 302 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy xujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....</i>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....</i>	4
1.2.3.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Kasbiy kvalifikatsiyalar.....	8
2.4.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....</i>	8
2.5.	<i>70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligi o'quv rejasidagi yuklama hajmi.....</i>	11
	Bibliografik ma'lumotlar.....	12
	Kelishuv varag'i.....	13

1. 70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) "Arxitektura va qurilish" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy-tadqiqotlarni olib borish, O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari qo'mitasi tarkibidagi va O'zbekiston Respublikasi qurilish kompleksi tizimidagi tashkilot va korxonalaridagi ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash, saqlash, obodonlashtirish, avtomobil yo'llarida yo'l harakatini tashkil etish va xavfsizligini oshirish hamda qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish, qurilish jarayonida sifatni boshqarish, yo'l servisini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan muhandislik masalalari kompleksini qamrab oladi, shuningdek ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalarini rivojlantirishda barqarorlikni ta'minlash, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari qo'mitasi tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar;

- ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

- avtomobil yo'llari va yo'l inshootlarini ekspluatatsiya qilishni tashkil etish korxonalari;

- harakatga xizmat qiluvchi inshootlarni loyihalash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlovchi texnik vositalarni qo'llash tashkilotlari;

- avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash, yo'llarni jixozlash, obodonlashtirish ob'ektlarida ishlarni tashkil etish, yo'l servisini tashkil etish korxonalari va tashkilotlari;

- yo'l xo'jaligining ishlab chiqarish korxonalari va bazalari;

- tashkiliy-boshqaruv ob'ektlari;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- ilmiy-tadqiqot jarayoni;

- o'quv jarayoni.

1.2.3. Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;

- pedagogik faoliyati;

- loyihalash-konstruktorlik faoliyati;

- ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

- turli xizmatlar ko'rsatish.

Magistratura bitiruvchilari magistr akademik darajasini olgandan so'ng oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ITlarda katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishi mumkin.

1.2.4. 70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi buyicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi xamda magistr kasbiy faoliyatlarining soxalari, ob'ektlari va turlariga muvofik magistratura bitiruvchisi kuyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- avtomobil yo'llari va undagi inshootlarni ekspluatatsiya qilishda mavjud bo'lgan dolzarb ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini taxlil kilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chikarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy makolalar, ma'ruzalar, risola, ukuv adabiyotlar tayyorlash va taxrir kilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharxlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maksadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish xamda faol ishtirok etish;

- avtomobil yo'llari va undagi inshootlarni ekspluatatsiya qilish buyicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chikish;

- oliy ta'lim, kayta tayyorlash va malaka oshirish. professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi buyicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil kilish, zamonaviy axborot va pedagogiya texnologiyalardan, uqitishning texnik vositalaridan foydalanib ukuv mashgulotlarini utkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning). masofaviy axborot texnologiya va ukuv-metodik majmualarni mukammal uzlashtirish;

pedagogiya va ilmiy maxorati xamda malakasini muntazam oshirib borish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

- xalqaro tajribalarga muvofiq avtomobil yo'llari ta'mirlash va saqlash loyihalarini ishlab chiqish;

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

- xalqaro tajribalarga muvofiq namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning xalqaro tajribalarga muvofiq instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;

- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etish;

- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash, yo'l xo'jaligida qurilish-montaj ishlarini xavfsizlik texnikasi talablariga muvofiq olib borishni va ob'ektlarni sinovdan o'tkazish va foydalanishga topshirishni tashkil qilish;

- avtomobil yo'llari ob'ektlarida ishlarni tashkil qilish va texnologiyaga oid muammolarni mustaqil yecha olishi, hamda mavjud moddiy va mehnat resurslarini birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan ishlab chiqarish masalalarini yechishga jalb qila olish;

- avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish tashkilotlarida, hamda qurilish ob'ektlariga qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini yetkazib beruvchi korxonalarda yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish va mavjudlarini takomillashtirish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilishda xalqaro tajribalarga muvofiq texnologik jarayonlar va resurslarni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilishi, loyiha jamoasini boshqarishi;

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilishi;

- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- xalqaro tajribalarga muvofiq zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishi;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish.

Turli xizmatlar ko'rsatish:

- mutaxassislik bo'yicha avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash tizimlari sohasida mavjud holatning tahliliy sharhlarini ishlab chiqish;

- avtomobil yo'llarini tizimlari magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish.

2. 70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;
- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;
- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;
- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari qo'mitasi boshqarma va korxonalari va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari qo'mitasi boshqarmalarida ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llay bilishi;

- avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilishning turli texnologiyalari, yo'llarni ekspluatatsiya qilishda qo'llaniladigan mashina va mexanizmlarni, yo'l ishlarini rejalashtirishni, qurilishda ishlatiladigan yordamchi konstruksiyalar va vositalarni hisoblashni va konstruksiyalashni bilishi bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilishning zamonaviy usullari, ekspluatatsiya uchun mashina, uskunalarni ishlata olishi, avtomobil yo'llarining ekspluatatsiya qilish jarayonlarini bajarish, qurilish texnologiyasini qo'llay bilishi;

- avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish, ekspluatatsiya qilish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

- avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

2.3. Kasbiy kvalifikatsiyalar:

- O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasi strukturasiga kiruvchi va xususiy avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish korxonalarida yo'l laboratoriyasi bosh mutaxassisi, ilmiy-tadqiqot bo'limi mutaxassisi, ilmiy-tadqiqot institutlari yetakchi mutaxassislari, quruvchi-muhandis, texnolog, yo'l korxonalarida mutaxassis, yetakchi mutaxassis, bo'lim boshlig'i, ishlab chiqarish texnik bo'lim boshlig'i, yo'l ekspluatatsiyasi muhandisi, harakat xavfsizligi muhandisi, ishlab chiqarish texnik va ekspluatatsiya bo'limi boshlig'i, bosh muhandis, korxona direktori o'rinbosari, korxona direktori, avtomobil yo'llari qo'mitasi bo'limi boshlig'i, avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi o'rinbosari, qo'mita raisi, avtomobil yo'llari sohasi tizimida har qanday lavozimlardagi kvalifikatsiyalariga ega bo'lishi mumkin.

2.4. 70730802 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari) magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

Magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi va fanlar dasturlari bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining tavsifi hamda kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

O'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi. Bunda o'quv jarayoni grafigi, haftalar kesimida o'qish vaqti, attestatsiyalar, amaliyotlar, tatillar, semestrlar bo'yicha

o'tiladigan "Majburiy fanlar", "Tanlov fanlari", mashg'ulotlar turlari, ajratilgan soatlar, kreditlar, fanlar kodi, Davlat attestatsiyasi va boshqalar ko'rsatiladi.

O'quv rejalarga kiritiladigan majburiy va tanlov fanlar turdosh oliy ta'lim muassasalar bilan hamkorlikda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

Majburiy fanlar bloki:

Ushbu fanlar bloki bitiruvchida quyidagilar haqida tasavvur, bilim va malaka, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishi **lozim**:

- ilmiy tadqiqot metodologiyasi va eksperimentlarni rejalashtirish - ilmiy tadqiqot asoslari: ilmiy bilish va ijodkorlikning metodologik asoslari, ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-texnik axborotlarni qidirish, to'plash, qayta ishlash va foydalanish; ilmiy tadqiqot uslublari: nazariy tadqiqotlar metodologiyasi, eksperimental tadqiqotlar metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlarda modellash asoslari, dissertatsiya ishini tayyorlash uslubi va himoyasi, ixtirochilik ijodkorligi asoslari, ilmiy jamoani tashkil etish; eksperimentlarni rejalashtirish va natijalariga ishlov berishning o'ziga xos xususiyatlari: ilmiy tadqiqotlarda kompyuter texnikalaridan foydalanish, eksperimentlarni rejalashtirish va ularni o'tkazish, eksperiment natijalariga ishlov berish uslublari, ilmiy va nazariy tadqiqotlarni tahlil qilish, xulosa va takliflarni shakllantirish, ilmiy tadqiqot ishlari hisobotlarini tuzish, ilmiy ma'lumotlarni chop etishga tayyorlash;

- maxsus fanlarni o'qitish metodikasi - ta'lim jarayonini tashkil etishning ilmiy uslubiy asoslari, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi, vazifalari va uning mazmunini belgilovchi asosiy me'yoriy hujjatlar, maxsus fanlarni o'qitishning psixologik pedagogik asoslari, maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi: maxsus fanlarda nazariy darslarni tashkillashtirish va o'tkazish metodikasi, maxsus fanlarda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkillashtirish va o'tkazish metodikasi, maxsus fanlarni o'qitishda mustaqil ta'lim, maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim jarayonini boshqarish, maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash, pedagogik monitoring va refleksiya, maxsus fanlar o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar, pedagogik mahorat;

- avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari - avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini prognozlash asoslari: avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari tizimi, avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini prognozlash va boshqarishning uslubiy asoslari, transport oqimi holatini prognozlash, yo'l qoplamasining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini prognozlash, yo'l sharoitiga bog'liq ravishda transport xarajatlarini prognozlash; avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini baholash tamoyillari: avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini baholash uslublari, avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlariga tabiiy-iqlim sharoitining ta'siri, avtomobil yo'llarining saqlanganligini ta'minlash muammolari, avtomobil yo'llarini diagnostika qilish va boshqarish, avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini optimallashtirish va boshqarish modeli;

- avtomobil yo'llarida geoaxborot tizimlari - geoaxborot tizimlari va ularning tuzilishi: avtomobil yo'llarida geoaxborot tizimlari, avtomobil yo'llarining hayot siklida geoaxborot tizimlarining o'rni, fazoga oid ma'lumotlar modeli, geoaxborot tizimlarida xaritalar bilan ishlash, geoaxborot tizimlarida loyihalar; avtomobil yo'llarida geoaxborot tizimlaridan foydalanish: avtomobil yo'llarining geoaxborot tizimlari, IndorGIS 5.0 universal geoaxborot tizimi, IndorInfo/Road 3.0 axborot tizimi, avtomobil yo'llarida geoaxborot tizimlarni qo'llash, avtomobil yo'llarini qurish ishlarida GPS texnologiyalaridan foydalanish, avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilishda GPS texnologiyalaridan foydalanish;

- avtomobil yo'llari muhandisligi - avtomobil yo'llari muhandisligining nazariy asoslari: yo'l konstruksiyasini qurishning nazariy asoslari, yo'l to'shamasi asosini va qoplamalarini qurishning ilg'or texnologiyalari, turli xil turdagi yo'l qoplamalarini qurishning nazariy asoslari, asfaltbeton va sementbeton qoplamalarini qurishning ilg'or texnologiyalari, yo'l qoplamasi ustki

yuzasiga ishlov berishning nazariy asoslari, avtomobil yo'llarini qurishning material-texnik bazasi, yo'l qurilish ishlarini tashkil qilish va qurilish ishlarini ishlab chiqarish loyihalarini tuzishning nazariy asoslari, yo'l qurilishining zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari; avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish: avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilishning nazariy asoslari, yo'l poyi va yo'l to'shamasini rekonstruksiya qilishning ilg'or texnologiyalari; avtomobil yo'llarini saqlash va ta'mirlash: avtomobil yo'llarini saqlashning zamonaviy texnologiyalari, avtomobil yo'llarini joriy va mukammal ta'mirlashning zamonaviy texnologiyalari, avtomobil yo'llari muhandisligida sifatni boshqarish va nazorat qilish tizimi va uni takomillashtirish muammolari;

- yo'l aktivlarini boshqarish - yo'l aktivlarini boshqarish asoslari va tamoyillari, yo'l aktivlarini joriy etish masalalari, yo'l aktivlarini joriy etishda strategik rejalashtirish, me'yoriy hujjatlar bazasi va budjetni rejalashtirish, yo'l aktivlarini narxini baholash, yo'l aktivlarini narxini baxolashni neyro-tarmoq prognozlash modellari, yo'l aktivlarini narxini tumanlashtirish, yo'l aktivlari holatini baholash, qoplama rovonligi yo'l aktivlarini holatini baholashda asosiy mezon, xalqaro rovonlik indeksi IRI va uni hisoblash metodikasi, yo'l aktivlarini boshqarishda transport-ekspluatatsion xarajatlarni o'rni, HDM-RUE ta'minot dasturi orqali transport-ekspluatatsion xarajatlarni hisoblash metodikasi, yo'l aktivlarini boshqarishda harakat xavfsizligini ta'minlash, avtomobil yo'llarining tasnifi, moliyaviy mablag'larini taqsimlashning optimallik egiligi, yo'l aktivlarini boshqarishda GIS texnologiyalari, yo'l aktivlarini boshqarishda yo'l ta'mirlash ishlarini rejalashtirish, yo'l aktivlarini moliyaviy boshqarish asoslari, yo'l sohasidagi davlat va xususiy sektor hamkorligi, yo'l sohasidagi davlat va xususiy sektor hamkorligining iqtisodiy samaradorligi;

- yo'l sohasi telematikasi - transport telematikasi tizimi, O'zbekiston Respublikasida transport telematikasi tizimini rivojlanish bosqichlari, transport telematikasi tizimida qo'llaniladigan texnologiyalar, yo'l sohasida telematika tizimi, yo'l telematikasining uslublari va vositalari, yo'l sohasida telematika tizimini qo'llashning xorijiy tajribalari, avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilishda intellektual transport tizimlarini qo'llash, avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlashda telematika tizimlari, avtomobil yo'llarini saqlashda telemetriya tizimidan foydalanish, yo'l qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanishda telematika tizimlari, yo'l ishlarini avtomatik rejalashtirish, yo'l inshootlarida ishlarni tezkor rejalashtirish, avtomobil yo'llarida torozi nazorat tizimini avtomatlashtirish, magistral yo'llar va shaharlarda intellektual transport tizimlari, yo'l harakatini boshqarishda telematika tizimlari, intellektual transport tizimlari, yo'l harakat xavfsizligini oshirishda zamonaviy intellektual tizimlar, avtomagistrallarda harakatni boshqarishda intellektual transport tizimlarini qo'llash, transport oqimini boshqarishning intellektual tizimlari, yo'l sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, "Aqlli yo'l" tizimi, yo'l belgi chiziqlari uchun «aqlli» materiallar, yo'l qoplamasidan quyosh batareyalari sifatida foydalanish.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida avtomobil yo'l sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Tanlov fanlari:

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo'yilgan talablar OTM Kengashi tomonidan belgilanadi.

Ilmiy faoliyat: ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'lgan talablar

mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirishi, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishi;

talabalarga soha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy-pedagogik ishga bo'lgan talablar

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Ilmiy amaliyot (stajirovka).

- soha bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish;

- fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish;

- sohaga tegishli amaliy kasbiy va ilmiy tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish;

- kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarni ta'minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

2.5. 70730802 – *Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (avtomobil yo'llari)* magistratura mutaxassisligi o'quv rejasidagi yuklama hajmi.

barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlari va ilmiy faoliyatning eng yuqori hajmi haftasiga 36 akademik soat qilib belgilanishi lozim.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, magistraturaning asosiy ta'lim dasturi (magistratura dasturi), avtomobil ekspluatatsiya qilish, yo'l qoplamalarining konstruksiyalari, qurilish potoklari, texnologik xaritalar, texnologik sxemalar, kalendar-grafik, qurilish muddatlari, avtomobil yo'llarining harakat sharoitiga ta'siri, avtomobil yo'llaridagi deformatsiya va buzilishlar, avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash, joriy va mukammal ta'mirlash, konstruksiyalar ishonchliligi, ishonchlilikning matematik aspekti, qayta tiklash, ko'chaytirish, qayta ta'mirlash, kompozitsion qurilish materiallari, asfaltbeton, beton, temirbeton, struktura hosil qilish, nanostruktura, mikrostruktura, makrostruktura, polimerli qo'shimchalar, beton qorishmasi, beton, polimersementli beton, polimerbeton, yuqori mustahkam beton, fibrobeton, nanotexnologiya, biotexnologiya, buyurtmachi, pudratchi, yordamchi pudratchi, tender, oferta, siklogramma, to'rsimon grafik, moliyalashtirish grafigi, optimallashtirish, avtomobil yo'llarini holati.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:



Toshkent davlat transport universiteti

Rektor

O. Abduraxmanov

202__ yil «__»
M.O'.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi**

Vazir o'rinbosari

A. Muminov

M.O'.

202__ yil «__»



**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi**

Direktor

Sh. Yakubov

M.O'.

202__ yil «__»



**O'zbekiston Respublikasi
Avtomobil yo'llari qo'mitasi,
Fan va innovatsion texnologiyalarni joriy etish,
standartlarni takomillashtirish,
mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash
bo'limi boshlig'i**



D. Musayev

M.O'.

202__ yil «__»

Toshkent arxitektura-qurilish instituti



Rektor

Ercan Kahya

M.O'.

202__ yil «__»